

DOI: 10.5281/zenodo.15589361

Link: <https://zenodo.org/records/15589361>

## O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHISHIGA AHOLI BANDLIGINING TA'SIRI HAMDA ULARNING FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

O'rinnov Akmaljon Axmadjonovich

Farg'onan davlat universiteti "Iqtisodiyot va servis" kafedrasi dotsenti, i.f.n

Pochta manzili: [urinov\\_aa@mail.ru](mailto:urinov_aa@mail.ru)

+998907877500

**Annotatsiya.** O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi ustuvor yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Olib borilayotgan islohotlar, jumladan, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu sohada sezilarli natijalarga erishilmoqda. Mazkur maqolada O'zbekistonda investitsion faollik va aholi bandligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda investitsiya faolligining o'rni tahlil qilinib, samarali investitsiya siyosatini yuritish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, sohada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan. Ilmiy maqola oziq-ovqat ta'minoti barqarorligini ta'minlashda strategik yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar.** Investitsiya, bandlik, iqtisodiy faollik, mehnat bozori, tadbirkorlik, investitsion muhit, islohotlar, innovatsiya, yangi ish o'rinnari, iqtisodiy siyosat.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida "Yil davomida biz uchun nihoyatda muhim bo'lgan yangi ish o'rinnari yaratish masalasi doimo diqqat markazimizda bo'lib kelgan"<sup>18</sup> deya ta'rif berilgandi.

O'zbekiston Respublikasida aholini bandlik holati bo'yicha tasniflash xalqaro darajaga mos keladi. Bu faqat iqtisodiy faol aholiga tegishli. O'z-o'zini ish bilan ta'minlash mamlakat uchun nisbatan yangi shakl. Bu o'zlarini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlaydigan odamlar, shu jumladan, tadbirkorlar, hunarmandlar, oilaviy korxonalar a'zolari, dehqon xo'jaliklari, ishlab chiqarish kooperativlari, fermerlar va boshqalar.

Investitsiyalar iqtisodiyotga mablag' oqimini ta'minlab, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratadi, bu esa o'z navbatida ish o'rinnari ko'payishiga olib keladi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) mehnat bozori faolligini oshiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yilda investitsiyalar hajmi oshgan hududlarda bandlik darajasi ham sezilarli yaxshilangan.

Mehnat bozori iqtisodiy faol aholini ish bilan ta'minlaydi, ularni ishlab chiqarish va xizmatlarga jalb qiladi. Bandlik ishchini yanada qulay ish joyiga o'tishni osonlashtiradi. Mehnat bozori orqali korxonalar kerakli miqdordagi va sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Mehnat bozori qaysi kadrlar, mutaxassislar, kasblar talabga javob beradigan va qaysi biri ortiqcha ekanligini ko'rsatadi. Ko'pgina mamlakatlar

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq sozi, 2017-yil 23-dekabr.

uchun dolzarb bo'lgan ushbu muammoning yechimi jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan samarali iqtisodiyotni yaratishni anglatadi.

To'liq bandlikni ta'minlash uchun taklif etilayotgan ish o'rirlari iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi va aholining ish bilan ta'minlash ehtiyojlarini qondirishi kerak. Bu yuqori mehnat unumdarligiga erishish, munosib daromad olish va shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan ishlarni anglatadi. Bundan tashqari, bunday joy sog'liqqa putur yetkazmasligi yoki inson qadr-qimmatiga zarar yetkazmasligi kerak.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni o'rganish, grafik va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqotda investitsion faollik va aholi bandligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda ularning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini chuqur tahlil qilish asosiy maqsad etib belgilandi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot mavzusini yoritishda foydalanilgan adabiyotlar respublika miqyosidagi siyosiy hujjatlar, nazariy asoslari va mehnat iqtisodiyoti, bandlik hamda innovatsion boshqaruvga oid ilmiy manbalarni o'z ichiga oladi.

Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2017) O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning strategik yo'nalishlarini belgilab berib, bandlik va investitsiyaviy muhitni yaxshilash borasidagi davlat siyosatining muhim jihatlarini yoritadi. Bu hujjat mamlakatda aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda dolzarb manba hisoblanadi.

Robertson va Lechnerning "Modernization, Globalization and the Problem of Culture" nomli ilmiy maqolasi esa jahon tizimi nazariyasi doirasida modernizatsiya va globallashuv jarayonlari ta'sirini o'rganadi. Bu tadqiqot doirasida O'zbekistonning investitsion siyosatiga global tendensiyalarning ta'sirini tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zokirova N.Q. va hamkorlarining "Aholini ish bilan bandligini tartibga solish" monografiyasi O'zbekistondagi bandlik siyosati, uning institutsional asoslari va tizimli muammolari haqida amaliy ma'lumotlar beradi. Ushbu manba orqali mamlakatdagi mavjud holat tahlil qilinadi.

Rofe A.I. tomonidan yozilgan "Ekonomika truda" darsligi bandlik, ish haqi, mehnat unumdarligi va samaradorligini oshirish masalalarini keng yoritadi. U mehnat resurslarining iqtisodiy mexanizmlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

V.M. Djuzining umumiyl tahriri ostida chop etilgan "Innovatsion menejment" darsligi esa zamонави iqtisodiy muhitda investitsion jarayonlarni samarali boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish yo'llari va ularning mehnat bozoriga ta'sirini o'rganishda qo'llaniladi.

Umuman olganda, tanlangan adabiyotlar O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar mazmuni, ularning xalqaro tajriba bilan uzviy bog'liqligi hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion va investitsiyaviy yo'nalishlarini keng tahlil qilish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy globallashuv jarayonlarida investitsiya siyosati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Investitsiya siyosatining mohiyati – bu mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish, infratuzilmani yaxshilash hamda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir.

Ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan birinchi narsa - bu ish bilan ta’minlash masalasidir. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida uning nazariy va amaliy jihatlarini asoslash muhim ahamiyatga ega. Demak, mehnat va aholini ish bilan ta’minlash masalalari deyarli barcha iqtisodiy nazariyalarga ta’sir qiladi. Klassik maktab asoschisi Adam Smit va uning izdoshi Devid Rikardonning ta’kidlashicha, mehnat resurslaridan to’liq foydalanish muhim rol o‘ynaydi va bozor samaradorligini taminlaydi. Ammo katta depressiya klassik maktab nazariyasiga zarba berdi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yil yakuniga qadar yalpi investitsiyalar hajmi 390 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, bu 2017-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,5 baravar o‘sishni ko‘rsatadi. Shu davrda band aholi soni ham 13,8 million kishiga yetgan. Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy faol aholi sonining ortishi investitsion loyihalarning ko‘payishi bilan uzviy bog‘liq.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, aholisi ko‘p va mehnat resurslariga boy hududlarda (masalan, Farg‘ona vodiysi viloyatlari, Toshkent shahri) investitsiyalar jalb qilish darajasi yuqori. Bu investorlar uchun ishchi kuchining mavjudligi va arzonligi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Mehnat vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yilda ishsizlik darajasi 8,4% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichni kamaytirish uchun investitsion loyihalarni ko‘paytirish zarur. Ayniqsa, sanoat zonalari, kichik sanoat markazlari va agrosanoat klasterlarida bandlikni oshirish orqali investitsiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi ta’minlanmoqda.

Investorlar yuqori malakali ishchi kuchiga ega bo‘lgan hududlarda faoliyat yuritishni afzal ko‘radi. Shu bois mehnat bozoridagi strukturaviy muvozanat, ya’ni talab va taklif orasidagi farq kamaygani sari sarmoya kiritish xavfi pasayadi.

1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasida Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi(jamiga nisbatan foizda), 2019-2021-yillardagi holati tahlil etilgan.

**1-jadval**

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi (jamiga nisbatan foizda)<sup>19</sup>**

| Investitsiyalar                           | 2019  | 2020  | 2021  |
|---|-------|-------|-------|
| Jami                                      | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan:                             |       |       |       |
| qishloq , o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 6,2   | 7,0   | 7,4   |
| tog‘-kon sanoati                          | 10,2  | 11,2  | 9,0   |
| ishlab chiqarish sanoati                  | 26,0  | 26,6  | 21,9  |

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

|  |      |     |      |
|--|------|-----|------|
| elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo                                | 10,8 | 5,3 | 7,9  |
| suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish      | 2,0  | 1,7 | 2,3  |
| qurilish   | 3,7  | 4,8 | 7,6  |
| ulgurji va chakkana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash | 3,8  | 6,3 | 4,2  |
| tashish va saqlash   | 7,2  | 6,7 | 6,7  |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 1,3  | 1,2 | 1,7  |
| axborot va aloqa   | 1,4  | 4,3 | 3,8  |
| moliya va sug'urta faoliyati   | 0,9  | 1,6 | 0,8  |
| kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat   |      |     |      |
| ta'limi  | 1,4  | 1,6 | 2,9  |
| sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish                                   | 2,8  | 2,6 | 3,2  |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish  | 4,2  | 3,2 | 3,1  |
| barcha faoliyat turlaridan tashqari  | 1,7  | 1,1 | 1,3  |
| turar-joy qurilishiga investitsiyalar  | 10,4 | 9,1 | 10,0 |
| boshqa faoliyat turlari  | 6,0  | 5,7 | 6,2  |

2021-yilda jami 100 foizni tashkil bo'lib, jumladan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 7.4 foizni, tog'-kon sanoati 9.0 foizni, ishlab chiqarish sanoati 21.9 foizni, elektr energiyasi , gaz, bug' va kondensiyalangan havo suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish 7.9 foizni, qurilish 2.3 foizni, ulgurji va chakkana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash 7.6 foizni, tashish va saqlash 4.2 foizni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 6.7 foizni, axborot va aloqa 1.7 foizni, moliya va sug'urta faoliyati 3.8 foizni, kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat 0.8 foizni, ta'lim 2.9 foizni, turar-joy qurilishiga investitsiyalar 10.0 foizni, boshqa faoliyat turlari 6.2 foizni tashkil etgan.

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari soni (2017-2023-yillarda)<sup>20</sup>

| Hududlar                      | Yillar |       |       |        |        |        |        | 2017-yilga nisbatan 2023-yilda |
|-------------------------------|--------|-------|-------|--------|--------|--------|--------|--------------------------------|
|                               | 2017   | 2018  | 2019  | 2020   | 2021   | 2022   | 2023   |                                |
| O'zbekiston Respublikasi      | 63259  | 81051 | 96455 | 106814 | 115980 | 131679 | 167570 | 2,65                           |
| Qoraqolpog'iston Respublikasi | 3845   | 5109  | 6570  | 7210   | 7920   | 8131   | 10198  | 2,65                           |
| Viloyatlar:                   |        |       |       |        |        |        |        |                                |
| Andijon                       | 5429   | 7226  | 9431  | 9977   | 11736  | 12236  | 17134  | 3,16                           |
| Buxoro                        | 3984   | 5722  | 6805  | 7375   | 8113   | 8672   | 11615  | 2,92                           |
| Jizzax                        | 1663   | 2428  | 3551  | 4029   | 4553   | 4716   | 5912   | 3,56                           |
| Qashqadaryo                   | 3113   | 4487  | 5315  | 7387   | 7562   | 8321   | 13764  | 4,42                           |
| Navoiy                        | 2499   | 2891  | 3703  | 3951   | 4396   | 4537   | 6411   | 2,57                           |
| Namangan                      | 6068   | 8480  | 9978  | 10780  | 10878  | 11548  | 14381  | 2,37                           |

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

|              |      |       |       |       |       |       |       |      |
|--------------|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|------|
| Samarqand    | 5227 | 6874  | 8346  | 9501  | 9752  | 13488 | 16924 | 3,24 |
| Surxondaryo  | 2552 | 3149  | 4137  | 4799  | 5698  | 7028  | 10204 | 4,00 |
| Sirdaryo     | 1718 | 2362  | 2672  | 2837  | 3019  | 3210  | 4391  | 2,56 |
| Toshkent     | 6002 | 6763  | 7319  | 7694  | 8444  | 10123 | 11910 | 1,98 |
| Farg'ona     | 8967 | 11655 | 13938 | 15744 | 17104 | 20396 | 22723 | 2,53 |
| Xorazm       | 3024 | 4134  | 4859  | 5783  | 6371  | 6996  | 9463  | 3,13 |
| Toshkent sh. | 9168 | 9771  | 9831  | 9747  | 10434 | 12277 | 12540 | 1,37 |

2-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarida 2017–2023-yillar davomida ma’lum bir ko‘rsatkich (kattalik — masalan, investitsiya hajmi, eksport hajmi yoki boshqa iqtisodiy ko‘rsatkich) dinamikasi berilgan. Shuningdek, 2023-yilda 2017-yilga nisbatan o‘sish koeffitsiyenti ham keltirilgan.

2017–2023-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi va uning barcha hududlarida kuzatilgan o‘sish tendensiyasi mamlakatning iqtisodiy salohiyati izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur yillar davomida respublika bo‘yicha ko‘rsatkichlar 2,65 baravar oshgan bo‘lib, bu iqtisodiy faollikning o‘sgani, sarmoyalar va resurslarni jalb qilish jarayonlarining faollashganini anglatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, ayrim viloyatlarda o‘sish sur’ati respublika o‘rtachasidan yuqori ekanligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida o‘sish sur’ati ancha yuqori bo‘lib, bu hududlarda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari, infratuzilma rivojlanishi va iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish chora-tadbirlari o‘z samarasini bergenini ko‘rsatadi.

Hududlar o‘rtasidagi farqlar iqtisodiy siyosatning hududiy tartibga solinishi, infratuzilmaviy imkoniyatlar va ichki resurslarning samarali foydalanilishi bilan uzviy bog‘liq. Umuman olganda, tahlil natijalari respublikada barqaror iqtisodiy o‘sish tendensiyasi shakllanganini va hududlar salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar ijobjiy samara berayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillarga ko‘ra, mehnat resurslarining salohiyatidan to‘liq foydalanilmagan. Xususan, ayollar va yoshlar orasida ishsizlik darajasi yuqoriligi iqtisodiy faollikni cheklab qo‘ymoqda. Quyidagi chora-tadbirlar bu muammoni yumshatishga xizmat qilishi mumkin:

**Kasb-hunar va raqamli savodxonlikni rivojlantirish:** 2023-yilda O‘zbekistonda 1,2 milliondan ortiq fuqaro kasbga qayta tayyorlangan. Bu ko‘rsatkichni yanada oshirish orqali malakali ishchi kuchi bazasini kengaytirish mumkin.

**Mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash:** O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni 2023-yilda 2,5 millionga yetgan. Ular uchun soliq imtiyozlari, mikroqarzlar va maslahat xizmatlari orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq.

**Hududiy tengsizlikni kamaytirish:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida bandlik darajasi pastligicha qolmoqda. Shu bois, investitsiya oqimini bu hududlarga yo‘naltirish zarur.

## XULOSALAR

Investitsion muhit va aholi bandligi bir-birini taqozo etuvchi, o‘zaro bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Aholi bandligi yuqori bo‘lgan jamiyatda ichki talab kengayadi, ishchi kuchi salohiyati ortadi, bu esa sarmoyadorlar uchun yanada jozibali muhit

yaratadi. О‘з navbatida, sarmoya oqimi iqtisodiyotga yangi quvvatlar olib kirib, barqaror bandlikni shakllantiradi. Shu bois davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida iqtisodiy faollikni oshirish bilan bir qatorda, strategik investitsiyalarni hududlarga teng taqsimlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot investitsiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ustuvor yo‘nalishlarga qarab xulosalar va takliflarni ishlab chiqildi:

1. Investitsiya siyosatini shakllantirishga ta’sir etuvchi va uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy elementlarning takomillashtirilishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya faoliyatini amalga oshirish samaradorligini oshiradi.

2. Investitsion faoliyatni kuchaytirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini kuchaytirish uchun 24P darajasida investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash strategiyasi va taktikasini belgilaydigan investitsiya loyihamonlari ishlab chiqish zarur, bu kompaniyaning samaradorligi uchun zarur investitsiya salohiyatiga ega yoki yo‘qligini eng to‘liq va aniq aniqlashga imkon beradi.

3. Investitsiya loyihasini yaratish va amalga oshirish sxemasi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak: investitsiya konsepsiyasini (g‘oyasini) shakllantirish; investitsiya imkoniyatlarini o‘rganish; Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari; shartnoma hujjatlarini tayyorlash; loyiha hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; obektning ishlashi, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning monitoringi.

4. Ishlab chiqilgan investitsiya strategiyasini baholash quyidagi mezonlarga asoslanishi kerak: korxonaning investitsiya strategiyasi uning iqtisodiy rivojlanishining umumiy strategiyasiga muvofiqligi; investitsiya strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xavf darajasining maqbulligi; investitsiya strategiyasining samaradorligi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. — 2017. — 23 dek.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Qaror “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha ustuvor vazifalar to‘g‘risida” № PQ-14, 20 yanv. 2023 // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. — 2023. — № 3. — B. 15–17.
3. Robertson R.; Lechner F. Modernization, Globalization and the Problem of Culture in the World-Systems Theory // Theory, Culture & Society. — 1985. — № 3.
4. Abdurahmonov Q.X.; Shoyusupova N.T. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy-mehnat munosabatlari: darslik. — Toshkent: TDIU, 2010. — 292 s.
5. Бараненко С.П. Экономика и социология труда: учебно-методический комплекс для студентов очной и заочной формы обучения. — М.: РОС. Акад. предпр., 2011. — 434 с.
6. Zokirova N.Q.; Shoyusupova N.T.; Gabzalilova V.T.; Abdurahmanova G.Q. Aholini ish bilan bandligini tartibga solish: monografiY. — Toshkent: TDIU, 2011.

7. Рофе А.И. Экономика труда: учебник / 3-е изд., доп. и перераб. — М.: КНОРУС, 2017. — 374 с.
8. Инновационный менеджмент: учебник / под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. В.М. Джузи; 2-е изд., перераб. и доп. — М.: РИОР; ИНФРА-М, 2017. — 376 с.
9. Butaboyev M.; Urinov A.; Mulaydinov F.; Tojimatov I. Digital economy: textbook. — Toshkent, 2021. — S. 76–91.
10. Gafurov A.; Urinov A. Economic Reforms In Uzbekistan: Specific Features, Results And Problems // Eurasian Vision: Felicitation Volume on the 70th Birthday of Prof. Devendra Kaushik. — 2003. — P. 187.
11. The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. — Rome: FAO, 2023. — 276 p.
12. World Bank. Agricultural Productivity and Food Security in Central Asia. — Washington, DC: World Bank, 2022. — 143 p.
13. Maxmudov A.N. Innovatsion investitsiyalar va qishloq xo‘jaligi rivoji // Agroiqtisodiyot. — 2023. — № 3. — B. 22–28.
14. Rajabov Z.X. O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importini kamaytirishning investitsion mexanizmlari // Iqtisodiy tahlil. — 2021. — № 1. — B. 54–58.
15. UNDP Uzbekistan. Sustainable Development Goals: Zero Hunger and Uzbekistan’s Food Security Agenda. — Toshkent: UNDP, 2023. — 64 p.